

## O'QUVCHILARNI KASBIY QIZIQISHLARINI ERTA ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISH

*Shodiyeva Gulrux*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada kasb va kasb qiziqishlarini erta aniqlash va rivojlantirish, uning aspektlari, xususiyatlari va dolzarbligi muhokama qilingan. Shuningdek, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy omillar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** kasb, kasbiy tayyorgarlik, shaxs kamoloti, qiziqish, intellekt, kasbiy tanlov.

O'quvchilarni kelajak hayot rejaları va kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblari bilan tanishtirishdan avval ulardagi mavjud maylga, qiziqishga, nafosat va nafis tuyg'ularga, irodaviy sifatlarga, ideal maqsadlarga intilishga alohida e'tibor berish zarur. O'quvchilarni ruhiyati va ma'naviyatiga to'g'ri yo'l topish orqali uning fe'l-atvoriga o'rnatilgan xislatlarida ayrim o'zgarishlar vujudga keltirish imkoniyati tug'iladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yoshlarning bosh vaqti-dushmanning ish vaqti" degan hikmatli iborasini juda ko'p ishlatadi. Bundan ma'no shuki, yoshlarni o'zlarining qiziqtirgan kasbga to'g'ri yo'naltirish ularning kelajagini porloq qiladi. Ota-ona, yaqin qarindoshlarining mas'ulligini oshiradi. Bugungi kun pedagogiga qo'yiladigan talab shuki, "Yomon o'quvchi bo'lmaydi, ularning qiziqtirgan olmagan yomon o'qituvchi bo'ladi". Yurtboshimizning ushbu so'zlari pedagogdan juda katta mahorat, bilim va qobiliyat talab qiladi. Har bir o'quvchini xarakter xususiyatidan, qiziqishidan, imkoniyatidan, bilimidan kelib chiqib, uni kasbga to'g'ri yo'naltirsa, u albatta jamiyatda o'z o'rnini topadi. Kasbiy qiziqishlarni o'rganish psixologiyada juda ko'p ilmiy tadqiqotlar mavzusi sifatida o'rganilgan va amaliy tahlil qilingan. Ma'lumki, shaxsning barcha qobiliyatlari uning qiziqishlarining qay darajada shakllanganiga bog'liq holda rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan o'quvchilar kasbiy qiziqishlari ularning ehtiyojlari, kelib chiqishi, kasblar haqida qanchalik ma'lumotlarga egaligi, kelajak orzulari bilan bog'liq bo'ladi. Shaxsning kasbiy bilimlarini aniqlash muammosi XIX asrning oxiri- XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshladi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganiladi. Ular kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar.

"Kasb-hunarga qiziqish" deganda shaxsning kasb-hunar tanlashga yo'nalganligi, tanlagan sohasining ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatlarini anglagan holda kasbiy motivlarining shakllanganligi bilan ifodalaniib, shaxsning kasb-hunar haqida ko'proq ma'lumot olishida, uni egallash maqsadida o'zida kasbiy bilim, malaka va

ko'nikmalarni shakllantirish faolligini oshirishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Kasb-hunarga qiziqishni uch tarkibiy komponenti (intellektual, emotsional va irodaviy komponentlar) bilan birga to'rtinchi komponentni – kasb-hunar tomonidan mutaxassisning kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalariga, xamda uning qobiliyatlariga qo'yiladigan talablarni ham o'zida aks ettiradi. Ushbu to'rtta komponent o'zaro munosabatda va mutanosib bog'liqlikda bo'lib, inson shaxsiga hamda uning hayot faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Kasb-hunarga qiziqishni shakllantirish bu, birinchi navbatda, o'quvchida mehnatsevarlikni hamda unga ijodiy yondashish tuyg'usini tarbiyalash, kasbhunar tanlashdagi mas'uliyat va kasbning jamiyat uchun ahamiyatini xis qilishni tarbiyalashdir. O'z navbatida, bilishga qiziqish ob'ekti bilish jarayonining o'zi bo'lib, xodisalarning ma'nosini tushunish, tegishli soha bilimlarining nazariy va ilmiy asoslarini chuqurroq o'rganish bilan belgilanadi.

Bizga ma'lum, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy.

Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. B.Shouning fikri bo'yicha kasb - mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir. YE.A.Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil ta'rif quyidagicha "Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi" bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifni yanada batafsil yoritirib, YE.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi. Yana bir ta'rifni keltiramiz. "jamiyat nuqtai nazaricha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo'lib, ular jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muhim bo'lgan natija mas'uliyatlarni yetkazishni ta'minlab berishi kerak bo'ladi" nisbatan tor ta'rifni esa V.G.Makushin keltiradi, kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi

uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Mavjud ta'riflarni umulashtirib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin.

O'quvchilarning kasbiy layoqatlari va ularning kasbga bo'lgan munosabatlarini rivojlantirish uchun kasb ko'nikmalarini shakllantirish asoslari, kasb tanlashga yo'llash sistemasining bosqichlari va kasb tanlashda asosiy mezonlarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonlarning nazariy jihatdan o'rganar ekanmiz, kasbiy bilimlarni egallashlarida o'quv jarayonining amaliyot bilan uyg'unligini ta'minlash kasb-hunar kolleji o'quvchilarini kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish bilan birga ularning kasbiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. O'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, kasb tanlashning ijtimoiy qimmatli motivlarini tarkib toptirish, o'z professional mavqeini belgilashda ko'maklashish ularning kasbiy bilimlariga tayanishi uqtirishi zarur holatdir. Kasbga yo'llash ishlarining ijtimoiy ahamiyatini oshirish, mutaxassislarga qanday talablar qo'yilishini aniqlashtirish, kasbga yo'naltirish ishlarini o'tkazish zaruriyatidan kelib chiqib kasbiy bilim va ko'nikmalarning ijtimoiy-psixologik mazmunini va ahamiyatini belgilab beradi.

O'quv kasblar ro'yxatiga shuningdek, kasblarning tarqalganligi, 17 og'ir va zararli mehnat sharoitlari bo'lgan ishlarga qarshi ko'rsatmalar, shuningdek yoshdagi cheklashlar ta'sir etadi. Kasbiy ta'lim uchun o'quv kasblar ro'yxatini tanlash doimo dolzarb bo'ladi va albatta bu ro'yxat ilmiy asoslangan guruhlashga ega bo'lishi kerak hamda kam sonli bo'lishi lozim. Malakali ishchilarning tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida o'quv fanlarini guruhlash masalasi birinchi marta S.Ya.Botishev tomonidan ko'rib chiqilgan edi. Kasblarning bo'linish belgisi sifatida quyidagilar ko'rib chiqildi: 1) Mehnatning mexanizasiyalanganlik darajasi. 2) Talab etiladigan malaka darajasi va xarakteri. 3) Sarflangan jismoniy va aqliy mehnat nisbati. Kasbiy ta'lim iqtisodiyotning kasblarga bo'lgan ehtiyoji va tarqalganligi asosida o'quv yurtlarida mutaxassisliklarni tayyorlash uchun mo'ljallangan kasblarni tasniflashga muhtoj. Bu borada quyidagicha ish olib borilmoqda, 1987 yilda kasbiy texnologik ta'lim tizimida ishlarini rivojlantirish uchun navbatdagi kasblar ro'yxati tasdiqlangan edi. Unga ko'ra, o'quv kasblarining umumiy soni 1123 tagacha qisqartirilgan edi. O'quv kasblarini loyihalashtirishda shaxs omili muhim hisoblanadi. Oxirgi yillarda "malaka" tushunchasi ham sezilarli o'zgardi. Ishchi malakasiga ma'lum mutaxassislik bo'yicha bilim, ko'nikmalardan tashqari keng kasblar doirasi uchun zarur bo'lgan muhim kasbiy sifatlar ham kiradi. Muhim kasbiy sifatlarga mas'uliyat, ishonchlilik, kirishimlilik, hamkorlik qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati kiradi. Hammasi bo'lib 50 ga yaqin asosiy tasniflash ajratiladi. har bir kasbiy faoliyat odatda 5-7 muhim kasbiy sifatlarni talab etadi. O'quv kasblarini loyihalashtirishda quyidagi tamoyillar asosiy bo'lishi mumkin. Pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ishlab chiqish texnologiyalarining o'zaro aloqalari. Shaxsning kasbiy o'zlikni anglash.

Xulosa qilib aytganda , o'quvchilarning kasb faoliyati har xil turlariga qiziqish va maylni rivojlantirish kasbga yo`naltirishning muhim tarkibiy qismi ekanligini e`tirof etish maqsadga muvofiqdir. Yoshlarni mehnatga tayyorlash yangi masala emas, hozir bu masalani ta`lim-tarbiya nazariyasi bilan uzviy birlikda ko`rib chiqish lozim. Kasbga yo`naltirish muammosiga ko`ra tarkib topgan ilmiy yo`nalishlarni rivojlantirish - eng muhim vazifalardan biridir.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. 103, 41-46.
2. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 avgustdagi “Kambag`al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o`qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta`minlashga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-4804-son qarori // <https://lex.uz/docs/4945748>
4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 dekabrdagi “Umumiy o`rta ta`lim muassasalarining 10-11-sinflari o`quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi 792-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/5800745>